

YANGI ASR ADABIYOTIDA XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RIYATINING O'RNI

Xushnazarova Sevinch

Annotatsiya: Adabiyot millat ruhiyati ma'naviyatining ko'zgusi hisoblanadi. Unda butun millat orzu-umidlari, ilg'or g'oyalari mujassamlashgandir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng hozirgi ijodkorlarimiz zimmasida milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga, qalbiga singdirish kabi muhim vazifa turibdi. Shu ma'noda Xosiyat Rustamova ham istiqlol yillarida millat istiqlolini barilla kuylagan hur fikrli shoira sifatida dunyo she'riyati bilan bo'ylasha oladigan she'rlari bilan o'ziga yangi sahifa ochdi. Shoira ijodida Vatan va Ozodlik, Hayot va Vido, Tabiat va Inson, Sevgi va Muhabbat kabi mavzular yetakchilik qiladi. Ushbu maqolada Xosiyat Rustamova she'riyatining XXI asr adabiyotida tutgan o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: millat ruhiyati, adabiyot, she'riyat gulshani, Vatan kuychisi, tarjimashunoslik ilmi

O'tgan asrning 90-yillarida nafaqat jamiyatimiz, balki milliy adabiyotimiz uyg'onish, yangilanish va ulg'ayish jarayonlarini boshidan kechirdi. Istiqlol sabab istibdod kishanlari parchalandi. Zamona soziga sozlangan, shaxsga sig'inish g'oyasi ila sug'orilgan, chin ma'noda iskanjada tutilgan millat adabiyoti yangi davr, erkin jamiyat sari qadam qo'ydi. O'zbekiston mustaqil bo'lgach, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy, madaniy-adabiy sohalarda keskin o'zgarishlar yuz berdi. Adabiyotga e'tibor kuchaydi. Istiqlol yillarida hayotimizning barcha sohalari qatori milliy adabiyotimiz ham tom ma'noda yangilanish va yuksalish jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Aytish mumkinki, adabiyotga e'tibor keskin o'zgarmoqda. Darhaqiqat, mustaqillik yozuvchi va shoirlarimizga mustaqil ijod erkinligini hadya etish barobarida o'z iste'dodlarini namoyon qilishlari uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochdi. Yangi davr adabiyoti mahsuli sifatida istiqlol she'riyati atamasi maydonga chiqdi. "U dunyoni har xil

anglash, izohlash hamda tasvirlash imkoniyatiga ega bo'lgan millat ijodiy dahosining samarasi o'laroq tug'ildi[1].

O'zgacha shakllanish va taraqqiyot tamoyillariga ega istiqlol she'riyatining qator o'ziga xosliklari mavjuddirki, ayni shu xususiyatlar unga milliy nazmimiz taraqqiyotida alohida bosqich sifatida qarash imkonini beradi. Bu badiiy hodisaga istiqlol she'riti degan nom ozodlikni orzulagani, istiqlol davrida yaratilgani, mustaqillikni madh qilgani, egaman kishilarning tuyg'ularini aks ettirgani uchungina emas, balki birinchi navbatda, she'rxonga dunyoni o'rganish bilan birga o'zini, o'z ko'nglini taftish etish lozimligini anglatishga uringani uchun ham berilgan atama ekanligini ta'kidlash joiz. Chunki, istiqlol huquqiy atamadan ko'ra ko'proq ruhoniyma'naviy tushunchadir. Ya'ni, u kishining tabiatiga ko'chsa, uning ma'naviy sifatiga aylansagina, ijtimoiy, siyosiy va yuridik hodisa sifatida ham qiymat kasb etadi. Shu ma'noda, istiqlol butun o'zbek millatini dunyoga, dunyoni esa o'zbekka yaqinlashtirgan bo'lsa, istiqlol she'riyati har bir o'zbekni o'z ko'ngliga yaqinlashtirdi, uning adoqsiz labirintlarini, purviqor cho'qqilarini, tubsiz teranliklarini, xullas, alohida qalbning naqadar poyonsiz va serqirra ekanligini aks ettirdi. Uning har bir qirrasini olam hodisalari qadar murakkab va jilvagar ekanligini anglatdi. Odamni bilish olamni bilishdan mushkulroq ekanligini ifodaladi. Binobarin, shu xil xossalarga ega odamning g'oyat mukarram zotligi tuydirildi"[2].

Yurt ozodligi, qalb hurligini baralla kuylagan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Hurshid Davron, Eshqobil Shukur, Abduvali Qutbiddin, Abdulla Sher, Omon Matjon, Azim Suyun kabi shoirlar ortidan Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, G'ulom Mirzo, Iqbol Mirzo, Salim Ashur, Fahriyor, Bahrom Ro'zimuhammad, Zebo Mirzaeva singari shiddatli avlod ergashdi. Xosiyat Rustamova ham ana shu shiddatli avlodning betakror vakili sifatida yangi davr adabiyotiga, she'riyatiga o'zining yangicha uslubi bilan kirib keldi. U 1971-yilda Namangan viloyati, Chust tumani Olmos qishlog'ida tavallud topdi. Toshkent Davlat dorilfununi (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti)ning jurnalistika fakul'tetini 1993-yili tamomladi. Shoiraning «Osmondosh uy» (1996). «Najot» (2003), «Rido» (2004), «Devor» (2006), «Avgust» (2008), «qo'rqinch» (2009 o'zbek va turk tillarida) va

«Ertasi yo‘q kunlar» (2010 o‘zbek va turk tillarida), «Ishg‘ol» (2011), «40:0»(2011) she‘riy to‘plamlari chop etilgan. Uning she‘rlari ingliz, ispan, olmon, rus, turk, ozar va qozoq tillariga tarjima qilingan.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, 2001-2003 yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Oliy Adabiyot kursi tinglovchisi bo‘lgan. 2004-yilda mamlakatimiz ijtimoiy va adabiy hayotiga qo‘shgan munosib hissalar uchun O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan «Shuhrat» medali bilan taqdirlangan. Xosiyat Rustamova tarjimai holi deyarli barcha shoirlarimizniki kabi odatiy, u badiiy ijodni o‘quvchilik chog‘idan boshlagan.

Ilk she‘rlari 1984-yilda respublika o‘quvchilarining eng nufuzli nashri sanalgan «Gulxan» jurnalida, so‘ngra «Namangan haqiqati» gazetasida shoir Ermamat Nurmatovning samimiy so‘zboshisi bilan e‘lon qilingan. Keyin talabalikni oltin damlariga shoiraning hamnafas azim poytaxt adabiy muhiti va adabiy jarayoniga daxldorlik yillari boshlandi. Atoqli shoir, mohir yozuvchi va O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Qo‘chqor Norqobil bilan oilaviy hayotda va badiiy ijodda maslakdosh bo‘lish baxti ijodkor uchun hayot va muhabbat garmoniyasini, ya‘ni uyg‘unligi ta‘minlandi. «Osmondagi uy» nomli ilk she‘riy to‘plami va matbuotdagi chiqishlari orqali she‘rxonlarning va keng adabiy jamoatchilikning mehrini qozongan umidli shoira kelajakda o‘ziga bildirilgan ishonchni oqlay oldi[3].

«Osmondagi uy» iste‘dod ruknida chop etilgan mo‘‘jazgina kitobcha bo‘lsa ham undan joy olgan she‘rlarda poetik kashfiyotlar sezilarli darajada namoyon bo‘lgan. Orada etti yillik sukunat, tanaffusdan so‘ng Xosiyat Rustamova yana badiiy ijodga qaytdi. qaytganda ham hayotiy tajriba, ijodiy kamolotga to‘lib qaytdi[4]. She‘r yozolmagan damlaridagi bo‘shliq o‘rnini mutoala yordamida to‘ldirdi. Jahon adabiyotining nasriy va nazmiy asarlaridan bahra oldi.

Shoiraning «40:0» kitobi ijodkor umrining sarhisobi sifatida she‘riyat ixlosmandlariga munosib tufha bo‘ldi. qirq yosh nafaqat ayol malohati, zakovati va fasohatining kamolotga etgan davri, balki shoir ijoding eng avj pardalarida kuylagan mahali sifatida qadrlidir. Aksariyat shoirlarimiz yoshlari ulg‘aygan sari pand-nasihat mazmunidagi she‘rlarni yoza boshlaydilar yoxud ular she‘riyati ehtirosdan ko‘ra

falsafiy fikrlar ustunlik qiladi. X. Rustamova ijodida esa yuqoridagi ikki holatdan mustasnoqlik mavjuddir, undagi shoirlik shijoati she'rdan-she'rga, kitobdan-kitobga o'sayotgani tabiiylik kasb etadi. shoir o'quvchiga aql o'rgatmaydi. O'z poetik olamida mavjud bo'lgan bizga tanish mavzularni yanada jonlantiradi. endi u o'lim mavzusiga o'ta ehtiyotkorlik bilan murojaat etadi. Zero umr o'tgani sayin inson olamni o'zlashtira boshlaydi.

Ayniqsa shoiraning «Odam ketib borar» nomli (YUgaslaviya Xalq shoirasi Desanka Maksimovichga) she'rida bashariyatni g'aflat uyqusidan uyg'otishga qodir buyuk isyon mujassam: «Odam ketib borar, Dunyo yashamoqdan to'xtaydi bir zum. Mening bor ovozda baqirgim kelar, Tobut ichidagi balki men o'zim». («Najot» 73-bet. 2004y). Shoira bu satrlari bilan: «Ko'zingni och, odamzod, bir kuni shu tobutning ichida sen ham bo'lishing muqarrar!» - demoqchiday...

«O'lim tuyg'usining jonlanishi har qanday olamni shoirga aylantirib yuboradi. Sog'lom odamda o'lim tuyg'usi mudroq bo'ladi. Hammamiz bilamizki, umr mangu emas, dunyodan rizqimiz uzilgan kuni omonatimizni topshiramiz, lekin bo' haqiqatni bilishimiz bizlarni unchalik iztirob va vahimaga solmaydi. O'lim tuyg'usi jonlanib qolsa-chi? Hayot tarzimiz va psixikamizda o'ta keskin o'zgarishlar sodir bo'ladi».

2003-yildan bugunga qadar tinimsiz izlanishda bo'lgan shoira ettita she'riy to'plam, bitta p'esasi bilan nazmsevarlar e'tiboriga tushib ulgurdi. Uning she'rlari 2007-yilda XX asr o'zbek she'riyati antalogiyasidan joy oldi. Anna Axmatova, Marina Tsvetaeva, Evgeniy Evtushenko, Bella Axmadulina kabi buyuk rus shoirlarining she'rlaridan namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan Xosiyat Rustamova mohir tarjimon sifatida ham o'zini namoyon eta oldi. Dunyoning ko'pgina yirik davlatlarida ijodiy uchrashuvlarda bo'lib badiiy jug'rofiyasini kengaytirdi va olamning turli nuqtalaridagi she'rxonlar didini o'rgandi. Xosiyat Rustamova she'rlari Aleksandr Faynberg, Fedchenko, Bella Axmadulina, Emina Sevinch, Alisher Tursunov, Abdullatif Abdullaevlar tomonidan rus, ingliz, ispan, olmon, turk, ozar va qozoq tillariga tarjima qilingan. Ayni damda shoira Respublikamizda chop etilayotgan «Kitob dunyosi» gazetasida bosh muharrir lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Xosiyat Rustamova o‘zbek She’riyatiga o‘ziga xos yangicha fikr va yangicha uslub tarzini olib kira olgan betakror shoira. Uning she’rlarida birgina ayol qalbining nozik kechinmalaridan emas, balki umumbashariy dardlardan iborat bo‘lgan poetik kashfiyotlardan iborat. Tuyg‘ulari rost, dunyoni badiiy obrazlar orqali so‘zlatib, she’rxonni o‘zgacha dunyoga yetaklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muslim J.. Gulshan diyor ko‘chalari: adabiy-badiiy nashr; Toshkent. «Navro‘z» 2014. - 264 bet.
2. Yo‘ldoshev Q.. Istiqlol she’riyatidan she’riy istiqloлга. «Guliston» jurnali. Toshkent. 2002. 5-6 son. 34 -35 bet.
3. G‘ofurov I.. Qalb durlari. Toshkent.: «Tafakkur» jurnali. 2008. 1 – son.
4. Olim Oltinbek. «Bir qushcha so‘raydi mening ruhimda...». «Sharq yulduzi» jurnali. Toshkent.: 2013. 4 – son. 145 - bet.